



QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 23-oktabr

284-4-60-Q/25

Koson tuman hokimligi

O‘zbekiston Qizil Yarim Oy Jamiyati Qashqadaryo viloyati tashkilotining insonparvarlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-maydagi “O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati to‘g‘risida”gi PF-411-son va 2018-yil 4-maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5430-son farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 5-oktyabrdagi “O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati to‘g‘risida”gi 458-son hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2025-yil 14-oktyabrdagi 480-4-0-Q/25 qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 21-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati hokimining 2025-yil 14-oktyabrdagi 480-4-0-Q/25 qarori raxbarlik, ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin
2. 2025-yil 21-30-noyabr kunlari O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati tuman tashkilotining insonparvarlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash xayriya o‘n kunligi o‘tkazilsin.
3. O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining tuman tashkilotining insonparvarlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash xayriya o‘n kunligini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Tumandagi barcha, tashkilot, idora va korxonalarga xayriya o‘n kunligida faol ishtirok etishlari tavsiya etilsin.
5. Tuman barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar, tashkilot korxona va muassasalar rahbarlariga xayriya o‘n kunligini uyushqoqlik bilan o‘tkazishda O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining tuman bo‘limlariga ixtiyoriy va beg‘araz yordam ko‘rsatish tavsiya etilsin.
6. Tuman madaniyat bo‘limining (N.Bomirov) xayriya o‘n kunligi davomida xayriya konsertlari, teatr tomoshalari, tuman sport bo‘limi (A.Xaybarov) sport

tadbirlaridan tushgan mablag'lardan bir qismini O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati tuman tashkilotining hisob raqamiga o'tkazsin.

7. Milliy gvardiya Koson tuman bo'limi(J.Ergashev),tuman ichki ishlar bo'limi (B.Mirzayev)ga shaxsiy tarkib o'rtasida O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining tuman tashkiloti hisobiga shaxsiy badal topshirish va mablag' to'plash yuzasidan tushuntirish ishlarini tashkil etish tavsiya etilsin.

8. Xo'jalik yurituvchi subyektlar, tashkilot, korxona va muassasalar rahbarlariga xayriya mablag'larini O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati tuman tashkilotining **Agrobank ATB Koson tuman filialidagi MFO 00162, IIN: 201614606, tashkilotning 20212000700384117001** hisob raqamiga o'tkazish tavsiya etilsin.

9. Xayriya o'n kunligi munosabati bilan to'plangan mablag'lar jamiyat ustaviga muvofiq yolg'iz keksalar, nogironlar, boquvchisini yo'qotgan va kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashga, tabiiy va texnogen falokatlarda jabrlanganlarga gumanitar yordam hamda favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish uchun zaxira yaratish ishlari uchun sarflanishi belgilab qo'yilsin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'ribosari H.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi



A.Boykaraev

Koson tumani hokimining
2025-yil 23-oktabrdagi
284-4-60-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati tuman tashkilotining insonparvarlik
faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida xayriya o'n kunligini o'tkazish
bo'yicha tashkiliy qo'mitasi
TARKIBI**

T/r	F.I.SH	-	Lavozimi
1	H.Nazarov	-	Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i, tashkiliy qo'mita raisi
2	Sh.Jo'rayev	-	Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, tashkiliy qo'mita raisi o'rinbosari
3	J.Do'stmuratov	-	Tuman hokimining o'rinbosari-tuman investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i
4	U.Ochilov	-	O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati Koson tuman bo'limi boshlig'i, tashkiliy qo'mita kotibi
5	F.Jovliyev	-	Tuman prokurori
6	B.Mirzayev	-	Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i
7	A.Yusupov	-	Tuman soliq bo'limi boshlig'i
8	J.Ergashev	-	O'zbekiston Milliy gvardiyasi Koson tuman bo'limi boshlig'i
9	N.Jo'rayev	-	Tuman mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i
10	J.Mo'minov	-	Tuman adliya bo'limi boshlig'i
11	N.Doniyorov	-	Tuman favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i
12	X.Gulmanov	-	Majburiy ijro byurosining Koson tuman hududiy bo'limi boshlig'i
13	B.Saidov	-	Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Koson tuman bo'limi boshlig'i
14	Sh.Avazov	-	Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i
15	Lavozimiga ko'ra	-	Tuman g'aznachilik bo'limi boshlig'i
16	U.Bozorov	-	Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman bo'limi boshlig'i
17	A.Artikov	-	Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
18	V.Ismailov	-	O'zbekiston savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi boshlig'i

19	X.Asadulloyev	-	Tuman statistika bo'limi boshlig'i
20	M.Ergashev	-	"Agrobank" ATB Koson tuman bo'limi boshlig'i
21	Z.Bozorov	-	AT "Xalq banki" Koson tumani filiali boshlig'i
22	O.Haqberdiyev	-	"Mikrokreditbank" ATB Koson tumani filiali boshlig'i
23	D.Narzullayev	-	Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi boshlig'i
24	I.Nurmonov	-	Kadastr agentligining Koson tuman bo'limi boshlig'i
25	U.Xayitov	-	"Kadastr agentligi davlat kadastrlari palatasi" Koson tumani bo'limi boshlig'i
26	I.Ergashev	-	Qashqadaryo viloyati hokimligi "Suvoqova" davlat unitar korxonasi Koson tuman "Suvoqova" filiali boshlig'i
27	Y.Yodgorov	-	"Kosontumangaz" filiali boshlig'i